

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

INGLIZ GAZETA DISKURSIDA FE‘L KOMPONENTLI KOLLOKATSIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

G‘apporov Baxriddin Baxtiyor o‘g‘li

University of Business and Science katta o‘qituvchisi

E-mail: bahriddingapporov91@gmail.com

Tel: +998881502772

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ingliz gazeta diskursida fe‘l komponentli kollokatsiyalarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqot, kollokatsiyalar orqali axborot va madaniy qadriyatlarni qanday ifodalashni, shuningdek, ularning ingliz madaniyatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Fe‘l komponentli kollokatsiyalar ijtimoiy, siyosiy va madaniy hodisalarni aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Lingvokulturologiya orqali milliy dunyoqarash va madaniyatlararo tafovutlarni aniqlash imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari gazeta matnlarini chuqur anglash va madaniy kontekstlarda to‘g‘ri talqin qilish uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: fe‘l komponentli kollokatsiyalar, realitet, gazeta diskursi, noverbal, leksik kollokatsiya, metaforalar, turg‘un birikmalar, lingvokulturema.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОЛЛОКАЦИЙ С ГЛАГОЛЬНЫМ КОМПОНЕНТОМ В АНГЛИЙСКОМ ГАЗЕТНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация: Данное исследование проводит лингвокультурологический анализ глагольных коллокаций в английском газетном дискурсе. Исследование показывает, как коллокации выражают информацию и культурные ценности, а также их значимость в английской культуре. Глагольные коллокации играют важную роль в отражении социальных, политических и культурных явлений. Через лингвокультурологию исследуются возможности выявления национального мировоззрения и культурных различий. Результаты исследования важны для глубокого понимания газетных текстов и правильной интерпретации в культурных контекстах.

Ключевые слова: словосочетания с глаголами, реальность, газетный дискурс, невербальный, лексические коллокации, метафоры, устойчивые выражения, лингвокультурема.

LINGUOCULTURAL INTERPRETATION OF VERB-COMPONENT COLLOCATIONS IN ENGLISH NEWSPAPER DISCOURSE

Annotation: This study conducts a linguistic and cultural analysis of verb-based collocations in English newspaper discourse. The research demonstrates how collocations express information and cultural values, as well as their significance in English culture. Verb-based collocations play an important role in reflecting social, political, and cultural phenomena. Through linguistic and cultural studies, the possibilities for identifying national worldviews and cultural differences are explored. The results of the study are important for a deeper understanding of newspaper texts and for accurate interpretation in cultural contexts.

Key words: verb-based collocations, reality, newspaper discourse, nonverbal, lexical collocations, metaphors, fixed expressions, linguocultureme.

KIRISH

Hozirgi global axborot makonida ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Dunyo miqyosidagi ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, ingliz tilidagi gazetalar va ularning diskursi tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ingliz gazeta diskursini tahlil qilish orqali turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy hodisalarni til orqali aks ettirish mexanizmlari aniqlanadi. Ayniqsa, fe‘l komponentli kollokatsiyalarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligi aynan shu omillar bilan bog‘liq. Gazeta diskursi o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, uning asosiy vazifasi axborotni tezkor va samarali yetkazishdan iborat. Shu bois gazetalar matnlarida turg‘un birikmalar, metaforalar va kollokatsiyalar keng qo‘llaniladi. Kollokatsiyalar – bu til birliklarining tabiiy ravishda birgalikda ishlatilishi natijasida yuzaga keladigan turg‘un birikmalardir [4]. Ayniqsa, fe‘l komponentli kollokatsiyalar ingliz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan til birliklaridan biri bo‘lib, ularning gazetalar diskursida qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Fe‘l komponentli kollokatsiyalar gazeta maqolalarida muayyan g‘oyani ifodalash, axborot yetkazish va matn uslubini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslikning kesishmasida joylashgan fanlararo sohasi bo‘lib, unda so‘z va iboralarning madaniyatga xos semantikasi, til orqali milliy va etnik o‘ziga xosliklar, madaniy dunyoqarashning tilga ta’siri kabi masalalar asosiy o‘ringa qo‘yiladi. Lingvokulturologiya XX asr oxirida, asosan rus tilshunosligida (V.V. Vorobyov, V.N. Telia, V.A. Maslova kabi olimlar) shakllandi. Bu termin lotincha *lingua* “til”, *cultus* “hurmat qilish, ta’zim qilish” yunonchada esa “ilm, fan” degan ma’nolarni anlatadi. Biroq uning nazariy ildizlari bir necha yuz yilliklarga borib taqaladi. Vilgelm Gumboldt tilni muloqot vositasi emas, balki milliy dunyoqarashning ifodasi deb hisoblaydi. Til strukturasi idrok va fikrlashni shakllantiruvchi noyob filtr sifatida ko‘riladi. Edvard Sapir va Benjamin Uorfning gipotezasi tilning fikrlashga ta’sirini va turli tillarda gapiruvchilarning realitetni har xil idrok etishini ta’kidlaydi. Linguokulturologiya bu g‘oyani, madaniy xilma-xillikni til orqali tahlil qilishda qo‘llaydi [6]. Til madaniyatning ajralmas bir qismi sanaladi. Tilsiz madaniyat mavjud

bo‘lishi mumkin emas. Boshqa tomondan, til madaniyat ta’sirida shakllanadi va uni borliqda aks ettiradi. Madaniyatlar bir-biridan farq qilishi hamda har biri o‘ziga xos belgi-hususiylatlarga ega bo‘lishi mumkin. Til o‘rganish nafaqat fonetika va grammatikani, balki madaniyat va urf-odatlarini ham o‘rganishni taqozo etadi.

NATIJALAR

Gazeta matnlarida fe’l komponentli kollokatsiyalarning lingvokulturologik tahlil qilish til orqali ifodalangan milliy dunyoqarashni oson tushunishga asos bo‘ladi. Kollokatsiyalarni faqat grammatik va leksik til birliklari sifatida o‘rganish, ularni ekstralingvistik hususiylatlarini e’tibordan chetda qoldirish qo‘pol xato hisoblanadi. Misol uchun, ingliz gazeta matnlari aynan shu millatga xos so‘z va iboralardan tashkil topgan bo‘lib, milliy an’analar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Bundan tashqari, gazeta matnlari jamiyatda sodir bo‘layotgan turli hodisalar, qarashlar va madaniy stereotiplarni til orqali qayta gavdalandiradi. Fe’l tarkibli kollokatsiyalar ma’lum bir madaniy kontekstdagi ish-harakat va niyat-maqсадlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ularni ingliz gazeta matnlarida lingvokulturologik jihatdan o‘rganish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- a) Milliy mentalitetni anglash;
- b) Madaniyatlararo tafovutlarni aniqlash;
- c) Matnni qaysi auditoriyaga mo‘ljallanganligini aniqlash.

Biz ingliz gazeta matnlarida uchraydigan aynan fe’l komponentli kollokatsiyalarni aniqlashda “English Collocations in Use: Advanced (2017)” hamda “Oxford Collocations Dictionary for Students of English [1]” kitoblarini obyekt sifatida tanladik. Ularda mavjud faqatgina fe’lli kollokatsiyalarni alohida guruhlashtirib chiqdik. Shundan so‘ng, ingliz tilida so‘zlashuvchi xalqlar tili va madaniyatiga xos deb topilgan gazeta matnlaridagi kollokatsiyalarni lingvokulturologik tadqiq etdik. Ba’zi o‘rinlarda G‘arb va Sharq xalqlari lingvokulturologiyasi qiyosiy tahlilga tortilib, ularning o‘ziga xos-belgi hususiylatlari batafsil o‘rganildi hamda tavsiyalar berildi.

MUHOKAMA

Gazetalardagi fe’lli kollokatsiyalarning lingvokulturologik hususiylatlarini chuqur tahlil qilish gazetxonga inglizlargagina xos bo‘lgan lisoniy hamda madaniy o‘ziga xosliklardan boxabar bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Biz quyida ingliz gazeta matnlaridagi fe’l komponentli kollokatsiyalarni lingvokulturologik tadqiqini amalga oshiramiz. “Sam tried to **make eye contact** but failed.” (Times. 2023-yil, iyun) gapida berilgan “*make eye contact*” iborasi lingvistik jihatdan *verb+noun* leksik kollokatsiya hisoblanadi. Uni lingvokulturologik tahliliga keladigan bo‘lsak, “*make eye contact*” muloqot davomida suhbatdoshning ko‘ziga tik qarab turishni anglatadi. Biror kishining ko‘ziga qarab gapirish - noverbal muloqot turi G‘arb madaniyatida alohida maqomga ega. U orqali so‘zlovchi tinglovchiga o‘z his-tuyg‘u va munosabatlarini erkin va oshkora ifodalashi mumkin. Misol uchun, Amerika madaniyatida “eye contact” juda muhim muloqot vositasi sanaladi. Agar siz suhbatdoshning ko‘ziga qaramasdan yoki tez-tez ko‘zingizni chetga olib qochsangiz, suhbat siz uchun qiziq emasligi yoki

e‘tiboringizga arizasligini anglatadi. Shuningdek, Angliya va Avstraliyada ko‘zga tik boqib muloqot qilish odatiy ijtimoiy norma hisoblanadi. Hatto, ba’zi holatlarda suhbatdoshdan ko‘zni olib qochish uni haqorat qilish bilan barobar ko‘rilishi mumkin. Bundan tashqari, G‘arb mamlakatlarida ishga ariza topshirgan nomzod bilan o‘tkaziladigan ish intervyusida ish beruvchining ko‘ziga tik qarab muloqot qilish o‘sha nomzodning foydasiga ishlaydi, chunki ularning fikricha, faqatgina o‘ziga ishongan, malakali nomzodgina suhbat paytida ko‘zini chetga olib qochmaydi. Aksincha, Sharqda Yaponiya, Koreya hamda musulmon mamalakatlarida kimningdir ko‘ziga tik boqib so‘zlash odatda xurmatsizlik belgisi sanaladi. Ayniqsa, Yapon madaniyatida yoshlar keksa yoshdagilar bilan muloqotda ularni ko‘ziga emas, balki bo‘yniga qarab gapirishga o‘rgatiladi. Bizning madaniyatimizda ham kichik yoshdagilar kattalarga hurmat yuzasidan ko‘ziga tik qaramaydi. Ayollar esa nomahram erkaklarning ko‘zlariga tik boqishdan o‘zlarini tiyishi lozim. Amerikada esa agar suhbat paytida suhbatdoshni ko‘ziga tik qarab gapirmasangiz, ular sizga nisbatan yolg‘on gapiryapti degan xukmga kelishi mumkin. Inglizlarda *“Don’t trust anyone who won’t look you in the eye”* (“Ko‘zingizga tik qaramagan odamga ishonib bo‘lmaydi”) degan naql mavjud. Bu holat faqat inglizlarda uchramaydi. Madaniyatimizda bunga o‘xshash vaziyatlarni kuzatish mumkin. Masalan, biror shaxs rost yoki yolg‘on gapirayotganini aniqlash uchun “ko‘zimga tik qarab gapir” deyiladi. Agar o‘sha shaxs suhbat paytida ko‘zini chetga olib qochsa, u ko‘pincha yolg‘on gapirayotgan bo‘ladi va aksincha, ko‘zga tik qarab gapirsa, aldamayotganligidan darak beradi. Bunga yuqorida keltirilgan “Ko‘zlar hech qachon aldamaydi” degan gap isbot bo‘lishi. Bundan ko‘rinib turibdiki, suhbatdosh bilan muloqotda uning ko‘ziga tik qarab gapirish inglizlar uchun juda muhim masaladir. Biroq, shuni ham aytib o‘tish lozimki, yolg‘onchilar ham ko‘zga tik qarab aldashlari mumkin. Shuning uchun, ingliz gazeta matnlarida madaniyatga xos hususiyatlarni aks ettiruvchi kollokatsiyalarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Property Exchange, a new company publishing a national directory of people who want to **swap homes** rather than sell them says that so far most people are looking for smaller homes.” (Independent. 2023-yil, avgust) misolida yana bir lingvomadaniy o‘ziga xoslikka ega fe‘l tarkibli kollokatsiya “*swap homes*” berilgan. Bu yerda “*Swap*” fe‘li va “*homes*” otining kombinatsiyasi kuchli leksik kollokatsiya hosil qilgan. Kollokatsiya tarkibidagi “*swap*” faqat “*homes*” bilan emas, balki “*houses*” kabi muqobil ot bilan ham qo‘llanishi mumkin. “*houses*” bilan birga qo‘llanganda faqat “obyekt” ya’ni turar-joyi o‘zi nazarda tutiladi. “*Homes*” oti bilan esa nafaqat bino, balki u bilan bog‘liq bo‘lgan xotiralar, hissiyotlar hamda oilaviy munosabatlar ifodalanadi. Sinonimik hususiyatiga ko‘ra, “*exchange homes*” iborasi “*swap homes*”ning muqobili sifatida ko‘rilsada, “*swap*” so‘zi dinamik harakatni anglatganligi uchun hamda matn ko‘proq faol auditoriyaga mo‘ljallanganligini inobatga olsak, eng ma’qul kollokant hisoblanadi. Ushbu kollokatsiyani madaniy kontekstda tahlil qilib chiqamiz. Bu ibora til orqali madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Lingvokulturema tushunchasiga ko‘ra, “*swap homes*” atamasi ingliz madaniyatning bir qismi bo‘lib, zamonaviy jamiyatda sayyohlik va turar-joy almashinuvining global tendensiyalarini aks ettiradi. Ibora globallashuv tufayli xalqaro sayyohlikning o‘sishi,

madaniyatlararo muloqotning naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Masalan, “*swap homes*” tushunchasi ingliz gazetalarida ko‘pincha “*cultural exchange*” (madaniy almashinuv) yoki “*budget travel*” (arzon sayyohlik) kabi atamalar bilan birga qo‘llanadi. Gazeta matnlarida bu ibora ijobiy ottenka sifatida ko‘riladi. “Uy almashtirish” tushunchasi g‘arb madaniyatida individualizm va mustaqillikni aks ettiradi. Misol uchun, Amerikalik bir shaxs Angliyada istiqomat qiluvchi boshqa bir inson bilan ijtimoiy tarmoqda tanishib, o‘zaro kelishgan holda bir-biri bilan vaqtincha uylarini almashishlari mumkin. Bunday holat asosan sayohat maqsadida amalga oshiriladi va ba‘zan ijara xonadonlari hamda mehmonxonalarda vaqtincha yashash ortiqcha xarajatlar keltirib chiqarganligi bois g‘arbliklar shu usuldan foydalanishadi. Odatda o‘rta sinf vakillari yoki nafaqaxo‘rlar moliyaviy imkoniyatlari cheklangiligi tufayli ham “uy almashish”dan manfaatdor bo‘lishadi. Aksincha, aholining boy qatlamlari o‘rtasida bunday odat deyarli uchramaydi, chunki ular qimmatbaho va serhasham mehmonxonalarda turishni afzal ko‘rishadi. Shuningdek, bir xillikdan qochish yoki yangi madaniyat, ur-odatlardan bahramand bo‘lish istagidagilar bu imkoniyatdan foydalanishadi. “Uy almashish” inglizlarda shu darajada urf bo‘lganki, hatto bunday xizmatni taklif qiluvchi “Love Home Swap”, “Swap House” hamda “Home Exchange” kabi mashxur internet saytlari ham mavjud. Inglizlar odatda vaqtincha uy almashishga qarshi emas. Bu yerda asosiy muammo shuki, birovning uyidagi jihozlar hamda shaxsiy narsa-buyumlardan begona shaxs foydalanishidir. Bizningcha, bunday noqulayliklarga ular ko‘z yumishadi yo‘qsa, bunday yashash tarzi u qadar ommalashmagan bo‘lar edi. Biroq, O‘zbekiston kabi jamoaviy madaniyatga ega mamlakatlarda bunday an‘ana mavjud emas, chunki bir oila boshqa bir oilaning uyiga shunchaki sayohat yoki arzon turar-joy istagida vaqtincha yashab turish uchun ko‘chib o‘tmaydi. Bu madaniyatimizga yot tushuncha hisoblanadi. “Swap homes” kollokatsiyasining lingvokulturologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, til birliklari nafaqat lug‘aviy ma‘noni, balki madaniy qarash va an‘analarni ham ifodalaydi. Har bir gazetxon yuqoridagi kabi iboraga duch kelishi tabiiy. Agar ular ingliz madaniyati, urf-odatlari va an‘analaridan oldindan voqif bo‘lishsa, gazeta matnlarida ifodalanayotgan ma‘lumot va xabarlarining asl mohiyatini teran anglashi mumkin bo‘ladi. “Born in Canada to British parents, raised in a land where football barely registered, Hargreaves **left home** as a teenager to forge his own destiny, first in Germany and then in England.” (Guardian. 2013-yil, avgust) misolida “leave home” yana bir fe‘l komponentli kollokatsiya hisoblanib, gazeta diskursida tez-tez ko‘zga tashlanadi. U odatda “uydan chiqib ketmoq, uyni tark etmoq” degan ma‘nolarni anglatadi. Ba‘zan quyidagi matn tarkibidagi “Amber and Sami **moved out of her parents’ home** and into their own flat.” (Guardian. 2013-yil, yanvar) “move out of one’s parents’ home” iborasi alternativ sifatida ishlatilishi mumkin. Matnda Amber hamda “Sami o‘z ota-onasining uyidan chiqib ketib, o‘zlarining kavgirtirasiga ko‘chib o‘tganligi” ta‘kidlangan. Biroq, biz lingvokulturologik tahlilimizda shunchaki bu iboradan uydan biror joyga biror yumush bilan chiqib ketishni nazarda tutishdan yiroqmiz. Biz bu iboradan “farzand voyaga yetgan paytida ota-onasining uyidan mustaqil chiqib ketish” odatini tasvirlash uchun foydalanmoqdamiz. To‘g‘risi, bu kabi hodisa bizning mentalitetimizga aslo to‘g‘ri kelmaydi, chunki oila bizning

jamiyatimizda muqaddas dargoh hisoblanadi. Farzandlar voyaga yetganidan so‘ng ham ota-onalari bilan birga istiqomat qilishadi. Bu an‘ana bizning jamiyatda “*qaramlik*”ni ifodalamaydi va tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Agar farzand ota-ona bilan o‘zaro kelishsa, turmush qurgandan so‘ng hech qanday muammosiz ota-onasinikidan alohida mustaqil bo‘lib chiqib ketishi mumkin. Turmush qurmagan o‘g‘il yoki qiz farzandlar voyaga yetgach, odatda hech qachon tug‘ilib o‘sgan uyini yo ota-onasining qistovi yo o‘z xohishlari bilan tark etishmaydi. “*Ota-ona uyini tark etish*” g‘arbliklar uchun ortiqcha muhokamalarsiz odatiy amal qilinadigan ommaviy madaniyatning biri turi sanaladi. Har bir voyaga yetgan shaxs ongli ravishda hayotga ilk mustaqil qadam bosish hamda moliyaviy mustaqil bo‘lish uchun o‘z tug‘ilib o‘sgan uyidan ketadi. Agar bunday istagi bo‘lmasa, ota-onasi bilvosita shunday qilish kerakligiga ishora qiladi va hatto gohida bevosita ogohlantirish so‘nggi chora sifatida amalga oshirilishi mumkin. Biz bu bilan barcha Amerika, Angliya va Avstraliyalik yoshlar mustaqil hayot kechirishadi degan fikrdan yiroqmiz. Biroq, bunday urf-odatga ancha vaqtdan buyon amal qilib kelinmoqda. Ikkinchi jahon urushidan oldin, turmush qurgandan so‘ng, yoshlar ota-onasining uyini tark etishgan bo‘lsa, o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab, yoshlarning oilaviy holati uncha rol o‘ynamay qo‘ygan. Amerikalik yoshlar odatda 18-25 yoshlar o‘rtasida uydan mustaqil bo‘lib chiqib ketishadi. Buning asosiy sabablaridan biri 18-19 yoshlarda kollej yoki universitetga o‘qishga kirishini keltirish mumkin. Ularning ayrimlari talaba krediti, yashash harjatlarning yuqoriligi, hamda boshqa iqtisodiy omillar tufayli “*ota-onasinikiga qaytishi*”ga to‘g‘ri kelib qolishi mumkin. Quyidagi matndan ko‘rinib turibdiki, “But it is not only the elderly who live in annexes, especially in an era when 50 per cent of university graduates **move back in with parents** and the average first-time buyer is aged 37.” (Daily Mail. 2013-yil, dekabr) 50 foiz universitet bitiruvchilari o‘z ota-onasining uyiga qaytishadi. Bakalavr darajasini qo‘lga kiritgan yigit-qizlar ota uyiga qaytish holati ko‘p kuzatiladi. Bunday farzandlarga nisbatan “*boomerang kids*” (“*bumerang bolalar*”) termini qo‘llanadi. Yaxshi maoshli ishga joylashguncha birga yashab turishadi. So‘ngra, ishga qabul qilingan zahoti, yana uydan chiqib ketishadi. Ota-onalar bu vaziyatni to‘g‘ri qabul qilishadi, chunki bir vaqtlar ular ham shunday kechinmalarni boshdan kechirishgan bo‘lishi tabiiy. Yuqoridagi uchala fe‘lli kollokatsiya ham aynan ingliz madaniyatiga xos bo‘lib, boshqa madaniyatlarda ular batamom o‘zgacha tushunchalar anglatishi mumkin. O‘rganilayotgan til egalarining madaniyat va urf-odatlarini chuqur o‘rganish, ekstralingvistik farqlardan voqif bo‘lish gazetalarni qiyinchiliksiz tushunishga olib keladi. Ingliz madaniyatining o‘ziga xosligini aks ettiruvchi so‘z birikmalari qatorida “*take a gap year*” kollokatsiyasi alohida o‘rin egallaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Now that Malia Obama is planning **to take a gap year** after high school and before starting college at Harvard University in 2017, some questions arise: What exactly do students do while on a gap year? What do colleges think of them?” (The Independent. 2016-yil, may) gapida Prezident Baraka Obamaning qizi Malia 2017-yilda Garvard Universitetida o‘qishni boshlashdan oldin iyun oyida yuqori maktabni tamomlagach, “*bir yil o‘qishdan tanaffus qilmoqchiligi*” tasvirlangan, ya‘ni o‘qish mabaynida olinadigan akademik ta‘til emas, balki o‘qishga qabul qilinishdan oldingi

bosqich nazarda tutiladi. Ayrim universitetlar o‘qishga endigina qabul qilingan, biroq hali o‘qishni boshlamagan talabalar uchun o‘rinlarni bir yilgacha band qilib turishadi. Buning isboti o‘laroq, yuqorida Amerika Prezidenti Baraka Obamaning qizi Garvardda o‘qishni boshlashdan avval bir yil mobaynida tanaffus qilishi ta’kidlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, hatto top universitetlar ham talabalarning bunday amaliyotdan foydalanishlariga imkon yaratib, ularni rag‘batlantiradi. “Gap year” odatda Buyuk Britaniyada keng ommalashgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Amerikada ham so‘nggi yillardan bu amaliyot xalq orasida ancha ommalashdi. An’anaviy jihatdan, bu ibora maktabni tamomlab, universitetda o‘qishni boshlash oralig‘ida dunyo aylanish yoki kasbiy rivojlanish maqsadida bir yillik ta’til olishni bildiradi [5]. “Akademik ta’til” uch oydan yigirma to‘rt oygacha davom etishi mumkin. Biroq, “gap year” aynan bir yil davom etishi shartligi haqida ma’lumotlar mavjud emas. Bu muddat nafaqat bir necha oylar, balki bir necha yillargacha cho‘zilishi mumkin. Har bir yosh avlod bu davr mobaynida rasmiy ta’lim, treyning yoki ish joyidan tanaffus qiladi hamda kelgusi hayoti va kasbi bo‘yicha muhim qarorlar chiqaradi [3]. Buyuk Britaniyada talabalar orasida ommalashgan bu turdagi “*ma’lum muddatli tanaffus*” olish urf-odati turli omillarga bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. Talabalarning turli xalqlarning madaniyat va urf-odatlarini tadqiq qilish yoki munosib kasb-xunar tanlashdagi ikkilanishlari ushbu hodisaning asosiy sabablari sifatida ko‘rsatiladi. Ishga joylashishdan oldin boshlang‘ich kasb ko‘nikmalarini shakllantirish, universitetda o‘qish uchun yetarli miqdorda mablag‘ jamg‘arish yoki maktablarda ishga joylashtirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi ta’limni uzluksiz davom ettirmasdan yoki ishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri joylashmasdan ma’lum muddat tanaffus qilishni taqozo etishi mumkin [2]. Bu kabi odatni yana bir ingliz tilida so‘zlashuvchi davlat, Avstraliyada ham uchratish. “If you can **take a gap year** – do it! Work, save some money, go overseas, enrol in a scuba diving course, volunteer, work in an English pub and come back with an accent, be a nanny, go fruit-picking, visit the Whitsundays and tour guide, do a ski season.” (The Sunday Morning Herald. 2023-yil, noyabr) quyidagi misolda “*Imkoning bo‘lsa, bir yillik tanaffus qil.*” degan chaqiriq mavjud. Jurnalist so‘zida davom etib, bu muddat oralig‘ida “ishlash, pul jamg‘arish, horijga safar uyushtirish, akvalangda suvga sho‘g‘ish kursiga yozilish, volontyorlik qilish, ingliz qovoqxonasida ishlab shevani o‘rganib qaytish, enagalik qilish, meva terishga borish, “Whitsundays”ga borib turistlarga gidlik qilish, mavsumiy chang‘i uchishga borish” singari foydali mashg‘ulotlarni tavsiya qilib o‘tadi. Demak, Avstraliyalik yoshlar yillik tanaffus mobaynida yuqoridagi keltirib o‘tilgan faoliyatlardan biri yoki bir nechta bilan shug‘ullanishi odatiy jarayon ekanligini anglash mumkin. Bu turdagi yillik tanaffus olish hammaga ham birdek naf keltiravermaydi. Biror shaxs tomonidan noto‘g‘ri rejalashtirilgan muddatli tanaffus keyinchalik barqaror ishga joylashish ehtimolini kamaytirib yuborishi hamda tanaffusdan so‘ng odatiy kun tartibiga qaytishga bo‘lgan motivatsiyani so‘nishiga olib kelishi mumkin. Buning eng yomon jihati shuki, universitet ta’limini davom ettirish istagidagi yoshlar o‘zlarining dastlabki rejalaridan chekinib, hatto o‘qishdan voz kechishlariga to‘g‘ri kelmoqda. O‘zbek jamiyatida bu kabi hodisa yot unsur hisoblanadi, chunki maktabni tamomlagach,

o‘quvchilar yo oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga hujjat topshirishlari yoki biror turdagi kasb-hunar o‘rganishlari mumkin. Buning uchun ular “bir yil” tanaffus qilishlariga hojat yo‘q. Katta farqlardan yana biri shuki, universitetlar o‘qishga qabul qilingan talabaga uning o‘rnini bir yilga saqlab turish sharti bilan yillik tanaffus qilishga ruxsat bermaydi. Bunday tafovutlar, shubhasiz, madaniyatlararo muloqotni o‘rganishga doimiy ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ingliz gazeta diskursida fe’l komponentli kollokatsiyalarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Kollokatsiyalar madaniy qadriyatlar va ijtimoiy hodisalarni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Lingvokulturologiya yordamida milliy dunyoqarash va madaniyatlararo tafovutlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari ingliz gazeta matnlaridagi madaniy kontekstlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Crowther, J., Dignen, S., & Lea, D. (Eds.). (2002). Oxford collocations dictionary for students of English. Oxford University Press.
2. Heath, S. (2007). Widening the gap: Pre-university gap years and the ‘economy of experience’. *British Journal of Sociology of Education*, 28(1), 89–103.
3. Jones, A. (2005). Assessing the benefits of a gap year. Prospects Career Services’ Desk. Retrieved March 14, 2014, from <http://www.prospects.ac.uk>
4. O’Dell, F., & McCarthy, M. (2017). *English collocations in use: Advanced* (p. 6). Cambridge University Press.
5. Piddock, C. (2004). Taking time out. *Career World*, 33(3), 1.
6. Usmonova, Sh. (2019). *Lingvokulturologiya* (pp. 16-20). Toshkent.